

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– sentyabr holatiga


RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **2064 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarnining ulushi **0,9 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1887 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-sentyabr oyida viloyatda yilning boshiga nisbatan 2621 taga yaqin korxonalar faoliyat ko`rsatayotgan korxva tashkilotlar yangi tashkil ona va tashkilotlar soni 1972 etildi, bu esa o'tgan yilning ta-o'sgan (12,6%) ga shu davriga nisbatan 977 ta-o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 17597 tani ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tutgatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning korxonalar va tashkilotlar-shu davriga nisbatan 31,5 % ning asosiy ulushi Buxoro ga kamaygan hamda ular shahrida (32,4 %), G'ijduvon ning soni 734 tani tashkil (10,5%), Romitan (7,6%) va etganligini kuzatish mumkin. Buxoro (7,1%) tumanlarida kuzatilmogda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
 va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
 (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Buxoro biloyat buyicha	18471	100,0	17597	100,0
tumanlar:				
Olot	636	3,4	573	3,3
Buxoro	1378	7,5	1241	7,1
Vobkent	837	4,5	809	4,6
G'ijduvon	1975	10,7	1848	10,5
Kogon	959	5,2	888	5,0
Q'orako'l	945	5,1	899	5,1
Q'orovulbozor	344	1,9	336	1,9
Peshko'	1134	6,1	1100	6,3
Romitan	1382	7,5	1341	7,6
Jondor	1250	6,8	1202	6,8
Shofirkon	1146	6,2	1038	5,9
shaharlar				
Buxoro sh.	5852	31,7	5707	32,4
Kogon sh.	633	3,4	615	3,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,1 % savdoda, 14,4 % sanoatda, 10,4 % qurulishda, 10,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,4 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2621 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 59,4% ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (809 ta), Romitan (270 ta), G'ijduvon (227 ta) va Shofirkon tumanlarda (183 ta) tashkil etilgan. Eng kam Q'orovulbozor (62 ta), Olot (82 ta) hamda Vobkent (104 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (421 ta), sanoatda (411 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (405 ta) va qurilishda (355 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (78 ta), axborot va aloqada (34 ta) hamda tashish va saqlashda (93 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-sentyabr holatiga.	2018 yil yanvar-sentyabr holatiga.
Jami:	1644	2621
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	333	405
Sanoat	398	411
Qurilish	193	355
Savdo	241	421
Tashish va saqlash	85	93
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	126	207
Axborot va aloqa	29	34
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	52	78
Boshqa turlari	187	617

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktyabr holatiga 14431 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`satayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 3042 ta, oilaviy korxonalar – 894 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 10130 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 16 tani va boshqalar 349 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko`satayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 138 tani tashkil etdi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan 53 taga yoki 62,4 % ga o’sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`satayotgan korxonalardan 94 tasi qo’shma korxonalar, 44 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 83 ta (60,2 %), Vobkent tumani 8 ta (5,8 %) va Kogon tumanlari 10 ta (7,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G'ijduvon tumani 2 ta (1,4 %), Qorovulbozor tumani 2 ta (1,4 %), Shofirkon tumani 2 ta (1,4 %) va Kogon shahri 3 ta (2,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 76 ta (55,1 %), savdoda 21 ta (15,2 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 11 ta (8,0%) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 11 ta (0,8 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (4,3 %), va qurilishda 7 ta (5,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda tashish va saqlashda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 44 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33 taga ko'paygan yoki 4,0 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 9ta, Turkiya Respublikasi – 10ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 3 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2ta va Koreya Respublikasi – 7 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-sentyabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 16 ta, savdoda 6 ta, qurilishda 4 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 5 ta va boshqa faoliyat turlarida 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 14304 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 13,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4868 tasi (34,0 %) Buxoro shahriga, 1510 tasi (10,6 %) G'ijduvon, 1113 tasi (7,8 %) Romitan, hamda 1024 tasi (7,2 %) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14304 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3679 tasi (25,7 %) – savdoda, 2500 tasi (17,5 %) - sanoatda, 1821 tasi (12,7 %) - qurilishda, 1728 tasi (12,1%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1096 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1113 tasi (7,8%) - tashish va saqlashda, 195 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 411 tasi (2,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1767 tasi (12,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariга to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariга to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2282 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 45,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (734 ta), Romitan (239 ta), G'ijduvon (195 ta) va Shofirkon tumanlarida (155 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (57 ta), Olot (68 ta) hamda Vobkent (85 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (419 ta), sanoatda (410 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (402 ta) va qurilishda (355 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (34 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (78ta) hamda tashish va saqlashda (93 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktyabr holatiga 938 tani tashkil etib, ulardan 894 tasi yoki 95,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'satayotganlarning umumiy soni o'rtacha 39,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 28,3 % yoki 253 tasi sanoat, 31,2 % yoki 279 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,2 % yoki 127 tasi savdo, 14,0 % yoki 125 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 10 tasi qurilish, 0,7 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,5 % yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,1 % yoki 64 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistika registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko`rsatish bo'limi.

Nashr uchun mas'ul:
F.Hakimova
(065)2238320

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat
registr (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan